“Yosh tarixchilarning 3-yozgi o‘qishlari”ni o‘tkazish rejalashtirilmoqda

YOSHLAR ISHLARI
AGENTLIGI

O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI

YOSH TARIXCHILARNING 3-YOZGI O‘QISHLARI

2024-yil avgust oyida Tarix instituti va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida “Yoshlar oromgohi”da “Yosh tarixchilarning 3-yozgi o‘qishlari”ni o‘tkazish mo‘ljallanmoqda.

Qatnashish istagidagi yoshlar yozgi o‘qishlarga taklif etilmoqda. Tarixga qiziquvchi 30 yoshgacha bo‘lgan bakalavr yoki magistr – 100 nafar ishtirokchi talabgorlar orasidan saralab olinadi.

Olimlar va tengdoshlaringiz bilan tajriba almashish uchun qulay imkoniyat.

Qo‘shimcha ma’lumot uchun:

#Tarix_instituti
#Yoshlar_ishlari_agentligi

Tarix instituti Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda iqtidorli va jamoat ishlarida faol tarixchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘zbek tarixchiligi milliy maktabining yangi avlodini shakllantirish maqsadida 2024-yil avgust oyida “Yoshlar oromgohi”da “Yosh tarixchilarning 3-yozgi o‘qishlari”ni o‘tkazish mo‘ljallanmoqda.

Yozgi o‘qishlarda jami 100 ta yosh tarixchilar va olimlardan iborat guruh ishtirok etishi rejalashtirilayotgan bo‘lib, yozgi o‘qishlar davomida yetakchi tarixchi olimlar ishtirokida ilmiy seminarlar, master-klass darslari, davra suhbatlari, yosh tarixchilar jamoalari o‘rtasida “Zakovat” o‘yinlari va boshqa turli ko‘ngilochar tadbirlar o‘tkaziladi.

Qatnashchilar tanlov bo‘yicha ajratib olinishlaridan kelib chiqqan holda, qatnashish istagidagi 30 yoshgacha bo‘lgan talabgorlar quyidagi QR-kod orqali barcha ma’lumotlarga ega bo‘lishi va nomzod sifatida ariza topshirishlari mumkin!

https://t.me/tarixchivijdoni